RUS TILI RIVOJLANISH TARIXI VA BUTUN JAHON MIQYOSIDAGI AHAMIYATI

Professor: Odilova Soliya

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori

Talaba: Esirgapova Laylo Shovqiddin qizi

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada rus tilining rivojlanish tarixi, zamonaviy va qadimgi rus (Sharqiy slavyan) tili, uning rivojlanishida tilshunos olimlar qarashlari, butun jahonda rus tilining tutgan o'rni haqida ma'lumotlar yoritib beriladi.

Kalit so'zlar : til, rus tili, Kiyev, Sharqiy slavyan, Rossiya, , ukrainlar, belaruslar

Kirish

Til-tafakkur bilan uzviy bog'langan, fikrimizning bevosita mavjud bo'lishini ta'minlaydigan va kishilar o'rtasida aloqa o'rnatishga xizmat qiladigan axborot belgilari tizimidan iborat. Til va tafakkurning birligi nutqda o'z ifodasini topadi. Til kishilarning ijtimoiy mehnati faoliyati negizida vujudga kelgan va rivojlana boshlagan. Shuning uchun, ham u chuqur ijtimoiy mazmunga ega hamda madaniyatimiz va tariximizning bir qismidir. Til yordamida bilimlar hosil qilinadi, to'planadi va avloddan avlodga yetkazib beriladi. Shu bois, u ta'lim va tarbiya ishlarini amalga oshirishga, mamlakatimiz rivojlanishiga yordam beradi.

Rus tili – rus xalq tili, dunyoda keng tarqalgan tillardan biri. Oldin SSRda, keyinchalik Rossiya Federatsiyasi va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligida millatlararo va davlatlararo aloqa vositasi. Rus tili Birlashgan Millatlar Tashkilotidagi 6 ta rasmiy tillarda biri hisoblanadi. Ukrain va belorus tillari bilan birgalikda hindevropa tillari oilasiga kiruvchi slavyan tillarining sharqiy guruhini tashkil etib, o'tgan asrning 80-yillaridaga ma'lumotlariga ko'ra, rus tili so'zlashuvchilarining umumiy soni 250 million kishidan, ya'ni hozirgi Rossiya Federatsiyasi va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida 185 million kishini tashkil etadi. Bundan tashqari, mazkur hududlardagi 60 milliondan ortiq kishi rus tilida erkin so'zlasha oladi. Rus tili juda uzoq va murakkab rivojlanish tarixiga ega bo'lib kelmoqda. Eng qadimgi rus adabiy tili Kiyev Rusida shakllana boshlagan. U XIV asrgacha Sharqiy slavyanlar uchun umumiy til hisoblanib kelgan. XIV-XV asrlarda qadimgi rus tili 3 tilga – velikorus, ukrain va belarus tillariga bo'linib ketadi. Shu davrdan boshlab rus tili ya'ni velikorus tili markazi Moskva bo'lgan rus davlati hududida rivojlanib bordi.

Qadimgi rus tili xususiyatlarini saqlab qolgan adabiy til bilan so'zlashuv tili o'rtasida sezilarli farqlar bo'lib, XVII asrtdan boshlab rus tili millati va rus milliy tili shakllangan. Adabiy tilning rivojlanishiga

XIX-XX asrlardagi rus adabiyotining mumtoz vakillari katta hissa qo’shgan. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab uning rivojlanishiga yozuvchilar bilan bir qatorda jamoat arboblari, fan va madaniyat namoyondalari ham katta hissa qo’shib kelganlar. XX asr o’rtalaridan boshlab butun jahonda rus tilini o’rganish keng tarqaldadi. R ust tili dunyoda 100 dan ortiq mamlakatda o’qitilgan. 1967-yilda Rus tili va adabiyoti o’qituvchilarining xalqaro assotsiatsiyasi, 1973- yilda A.S.Pushkin nomidagi Rus tili instituti tashkil qilingan. Sho’ro davrida O’zbekistonda va MDHning bir nechta mamlakatlarida rus tilini o’qitish va o’rgatishga alohida e’tibor berib kelingan. Hozirgi kunda respublikamizda rus tilini o’rgatish, avvalgiday majburiy bo’lmasada , o’z o’rnini yo’qotmagan.

Rus tili juda uzoq va murakkab rivojlanish tarixiga ega. Eng qadimgi rus adabiy tili Kiyev Rusida shakllangan bo‘lib, u XIV asrgacha sharqiy slavyanlar uchun umumiy til hisoblangan. XIV-XV asrlarda qadimgi rus tili 3 tilga — velikorus (rus), ukrain va belorus tillariga bo‘linib ketadi. Shu davrdan boshlab rus tili, boshqacha aytganda, velikorus tili markazi Moskva bo‘lgan Rus davlati hududida rivojlana boshlaydi.

Rus tili lahja va shevalari 2 ga: shimoliy velikorus ("o" lovchi) va janubiy velikorus ("a" lovchi) guruhlariga bo‘linadi; o‘rta rus shevalari mazkur har ikkala guruh xususiyatlarini o‘zida aks ettiradi. XVI-XVII asrlarda shimoliy va janubiy lahjalar chegarasida bo‘lgan Moskvada o‘ziga xos koyne (umumiy lahja) shakllanib, u namunali tilga aylanadi.

Qadimgi rus tili xususiyatlarini saqlab qolgan adabiy til bilan so‘zlashuv tili o‘rtasida sezilarli tafovutlar paydo bo‘lib, XVII asrdan boshlab rus millati va rus milliy tili shakllana boshlaydi. XVII asr oxiri — XVIII asr boshidagi adabiy til boy va ifodali, ko‘plab g‘arbiy yevropa o‘zlashmalariga ega esada, barqaror bo‘lmagan. Uni tartibga solish va barqarorlashtirishda M. V. Lomonosovning xizmatlari katta bo‘lgan. XIX asr boshlarida adabiy tilning xalqchilligi bosh muammo hisoblanib, bu muammoning yechimida I. A. Krilov, A. S. Griboyedov, ayniqsa, A. S. Pushkin ijodi alohida o‘rin tutadi. Ayni Pushkin ijodida umummilliy rus adabiy tilining shakllanishi yakun topadi. Pushkinning buyuk xizmati shundaki, uning ijodida adabiy Rus tilining umummilliy me’yorlari ishlab chiqilgan va mustahkamlangan hamda bu me’yorlar Pushkinning zamondoshlari va undan keyingi avlod tomonidan qabul qilingan.

Adabiy tilning boyishiga XIX-XX asrlardagi rus adabiyotining mumtoz vakillari ulkan hissa qo‘shdilar; XIX asrning 2-yarmidan boshlab uning rivojlanishiga yozuvchilar bilan bir qatorda jamoat arboblari, fan va madaniyat namoyandalari ham katta ta’sir ko‘rsatib kelmoqdalar. Oktyabr to‘ntarishidan so‘ng o‘zgacha ijtimoiy tuzum hamda fan va texnikaning rivojlanishi tufayli rus tilida, ayniqsa, uning leksikasida sezilarli o‘zgarishlar paydo bo‘ldi, adabiy tilning umumiy demokratlashuvi kuchaydi.

Rus tili flektivsintetik tillardan bo‘lib, unda 3 ta grammatik jins turkumi, otlarning 3 xil turlanishi, fe’llarning 2 xil tuslanishi mavjud; ko‘makchilar predlog ko‘rinishida, ya’ni o‘zi bog‘lanadigan so‘zlar oldidan joylashadi.

Hozirgi rus alifbosi kirill yozuvi (kirillitsa) asoslangan (qarang: Rus alifbosi). Unda bitilgan eng qadimgi yodgorliklar XI asrga taalluqlidir.

XX asr o‘rtalaridan boshlab butun jahonda rus tilini o‘rganish keng tarqaladi. Rus tili dunyodagi 100 dan ortiq mamlakatda o‘qitiladi. 1967-yilda Rus tili va adabiyoti o‘qituvchilarining xalqaro assotsiatsiyasi, 1973-yilda A. S. Pushkin nomidagi Rus tili instituti tashkil etilgan. Sho‘ro davrida O‘zbekistonda va MDHning bir qancha mamlakatlarida rus tilini o‘qitish va o‘rgatishga alohida e’tibor berilgan, hatto bu jarayon majburiy asosda olib borilgan. Hozirgi paytda ham respublikamizda rus tilini o‘rgatish, avvalgiday majburiy bo‘lmasada, o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Londonda nashr etiladigan Financial Times ro'znomasi yozishicha, sobiq Sho'ro respublikalari o'zlarining til suverenitetini mustahkamlashga harakat qilarkanlar, rus tilining dunyodagi mavqei keskin pasayib bormoqda.

Natijada rus tilining dunyodagi o'rni 20 yil oldingiga solishtirganda tushgan, degan xulosaga kelgan Financial Times muxbiri Stiv Jonson.

Bu narsa Prezident Vladimir Putinning Ukraina va Suriyadagi vaziyatga harbiy aralashuv bilan sobiq qudratli davlatning dunyo sahnasidagi obro'sini qayta tiklashga harakat qilayotganiga qaramasdan, Rossiyaning ta'sir doirasi pasayib borayotganini ham ko'rsatadi, deyiladi "Rus tili postsovet inkor bilan yuzma-yuz kelmoqda" deb nomlangan maqolada.

Milliy so'rovlar va BMT ma'lumotlariga ko'ra, bu jarayon hammadan ham ko'ra tez Qozog'istonda yuz bermoqda. Bu mamlakatda 1994 yili o'z xonadonida rus tilida so'zlashadiganlar aholining 33,7 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2016 yili bu raqam 20,7ga tushgan. Hoynahoy, bu tendentsiya bundan keyin ham davom etadi, chunki yaqinda Qozog'iston Prezidenti Lotin alifbosiga o'tilishi haqida e'lon qildi, deb yozadi ro'znoma muxbiri.

Estoniya va Latviyada rus tilini o'zining ona tili deb aytgan fuqarolarning soni 10 foiz kamaygan, bunga o'xshash manzara Ukrainada ham kuzatilmoqda. Rusiyzabon aholining soni Ozarbayjon, Litva, Turkmaniston va O'zbekistonda ham qisqargan.

2008 yildagi Rossiya bilan urushdan keyin Gruziyadagi rus tilida so'zlashadigan fuqarolarning soni 1,1 foiz kamaydi, sobiq prezident Mixail Saakashvili esa maktablarda ikkinchi til sifatida o'qitiladigan rus tilini ingliz tili bilan almashtirishga topshiriq berdi.

Macro-Advisory konsalting shirkati katta sherigi Kris Uiferning tushuntirishicha, "bu mamlakatlar Sovet rejimi asirligida edilar, ozod bo'lganlaridan keyin esa bu asirlikni yodga solib turadigan hamma narsa, shu jumladan, tildan ham ozod bo'lishni xohladilar".

Kris Uiferning aytishicha, sobiq Sho'ro mamlakatlari Rossiyaning madaniy va eng avvalo siyosiy ta'siridan uzoqlashish, shuningdek, Rossiya targ'iboti va yangiliklari o'zlarining ichki ishlariga aralashishidan xavotirlanganlari uchun rus tilidan voz kecha boshladilar.

Faqatgina bir mamlakat - Belarusdagina boshqalaridan farq qiladi. 1994 yili Belarusda aholining yarmidan sal ko'prog'i rus tilini o'z ona tili deb bilgan bo'lsalar, 2016 yili bu raqam 71 foizga etgan.

Bu Belarusda rus tilini ikkinchi davlat tili deb e'lon qilish haqidagi referendumni tashkillashtirgan Prezident Aleksandr Lukashenkoning xizmatidir.

Adabiyotlar ro’yxati

1. Микешина Л.А.Интерпретация как фундаментальная операция познания // Эпистемология
2. Философия науки, Т XVII , № 3 2008
3. Болдырев Н.Н. Антропоцентрическая сущность языка в его функциях, единицах и категориях //
4. Вопросы когнитивной лингвистики. 2015а. № 1. С. 5-12
5. Шарандин.А.Л.Лексическая грамматика как объект когнитивной лингвистики// 2013 УДК 81’366;81’373 с. 2-10
6. Дэвидсон, Дональд (2001 (1987)). «Познание собственного разума» перепечатано в изданиях